



THE HISTORY OF KESH (SHAHRISABZ) AND THE PERSONALITY OF SHAYKH AL-ISLAM KHOJA ABDURAKHMAN AL-ANSARI: AN ARCHAEOLOGICAL AND HISTORICAL ANALYSIS

Jamol Norov

Shahrisabz State Pedagogical Institute,

Lecturer at the Department of Social Sciences

E-mail: alpjamolprint@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Shahrisabz, Kesh, archaeology, Ansari, Timurid period, urbanization, Islamic scholarship, historical topography.

Received: 28.04.26

Accepted: 29.04.26

Published: 30.04.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the historical and archaeological context of a newly discovered tombstone in Shahrisabz associated with Shaykh al-Islam Khoja Abdurahman al-Ansari. The study integrates archaeological field data, epigraphic analysis, and classical historical sources. Special attention is given to the transformation of Kesh from a rural settlement during the Samanid period into a major urban and intellectual center by the Timurid era. The findings contribute to reconstructing the historical topography of Shahrisabz and identifying key figures in the religious elite of Central Asia.

KESH (SHAHRISABZ) TARIXI VA SHAYX-UL ISLOM XOJA ABDURAHMON AL-ANSORIY SHAXSI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY TAHLIL

Jamol Norov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: alpjamolprint@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Shahrisabz, Kesh, arxeologiya, Ansoriy, Temuriylar davri, urbanizatsiya, islomiy ilm-fan, tarixiy topografiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shahrisabz hududida aniqlangan va shayx-ul islom Xoja Abdurahmon al-Ansoriy nomi bilan bog'liq bo'lgan qabrtoshning tarixiy-

arxeologik konteksti kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot arxeologik dala kuzatuvlari, epigrafik tahlil hamda klassik tarixiy manbalarni integratsiyalash asosida olib borilgan. Asosiy e'tibor Keshning Somoniylar davridagi qishloq-qo'rg'onidan Temuriylar davriga kelib yirik shahar va ilmiy markazga aylanish jarayoniga qaratilgan. Olingan natijalar Shahrisabzning tarixiy topografiyasini rekonstruksiya qilish hamda Markaziy Osiyo diniy elitasining muhim vakillarini aniqlashga xizmat qiladi.

ИСТОРИЯ КЕША (ШАХРИСАБЗА) И ЛИЧНОСТЬ ШЕЙХ-УЛЬ-ИСЛАМА ХОДЖИ АБДУРАХМАНА АЛЬ-АНСОРИ: АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ И ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Жамол Норов

Шахрисабзский государственный педагогический институт

преподаватель кафедры социальных наук

E-mail: alpjamolprint@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Шахрисабз, Кеш, археология, Ансари, эпоха Тимуридов, урбанизация, исламская ученость, историческая топография.

Аннотация: В данной статье представлен комплексный анализ историко-археологического контекста недавно обнаруженного надгробного камня в Шахрисабз, связанного с шейх-уль-исламом Ходжой Абдурахманом ал-Ансари. Исследование основано на интеграции данных полевых археологических наблюдений, эпиграфического анализа и классических исторических источников. Особое внимание уделяется трансформации Кеша от сельского поселения в эпоху Саманидов до крупного городского и интеллектуального центра в период Тимуридов. Полученные результаты способствуют реконструкции исторической топографии Шахрисабза и выявлению ключевых представителей религиозной элиты Центральной Азии.

Kirish. Markaziy Osiyo tarixida qadimgi Kesh, ya'ni hozirgi Shahrisabz shahri o'zining ko'p qatlamli tarixiy rivojlanishi, diniy-ma'rifiy markaz sifatidagi roli hamda siyosiy ahamiyati

bilan ajralib turadi, chunki bu hudud qadimdan boshlab turli sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo'lib, uning taraqqiyoti uzluksiz tarixiy jarayon sifatida shakllangan [12]. Ayniqsa, Temuriylar davrida Shahrisabz nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan, tasavvuf va diniy tafakkur rivojlangan hudud sifatida alohida mavqega ega bo'lgan [13].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, arxeologik topilmalar, xususan qabrtosh yozuvlari orqali ilgari yetarli darajada o'rganilmagan tarixiy shaxslar va ularning jamiyatdagi o'rni haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin bo'lmoqda [14]. Shu nuqtai nazardan, yaqinda aniqlangan shayx-ul islom Xoja Abdurahmon al-Ansoriyga tegishli qabrtosh nafaqat epigrafik manba sifatida, balki butun bir tarixiy davrning diniy elitasini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – arxeologik topilmalar, epigrafik yozuvlar va tarixiy manbalarni kompleks tahlil qilish orqali Kesh shahrining tarixiy rivojlanishini qayta tiklash hamda Xoja Abdurahmon al-Ansoriy shaxsining tarixiy o'rnini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Kesh va Shahrisabz tarixi masalasi Markaziy Osiyo tarixshunosligida keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa sovet davri va undan keyingi davr olimlari tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, M.E.Masson va G.A.Pugachenkova o'z tadqiqotlarida Shahrisabz hududining arxeologik qatlamlarini chuqur tahlil qilib, uning qadimgi davrlardan boshlab rivojlanganligini ilmiy asoslab berganlar.

Z.Usmonovanning ishlari esa shahar topografiyasini tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda Shahrisabz hududining tarixiy joylashuvi, mahallalari va diniy markazlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, V.V.Bartoldning fundamental tadqiqotlari Markaziy Osiyodagi siyosiy va madaniy jarayonlarni tushunishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi [11].

Sharq manbalaridan esa Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Temuriylar davridagi siyosiy va diniy elita vakillari haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [15]. Zamonaviy G'arb tadqiqotchilaridan R.Frye, C.Bosworth va M.Subtelniy ishlari Markaziy Osiyo tarixini global kontekstda tahlil qilish imkonini beradi [5].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda epigrafik topilmalar asosida konkret shaxslarni identifikatsiya qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan bo'lib, mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi, bunda tarixiy-qiyosiy, epigrafik, arxeologik va manbashunoslik usullari o'zaro integratsiya qilindi. Epigrafik tahlil yordamida qabrtoshdagi yozuvlarning mazmuni, terminologiyasi va diniy konnotatsiyasi

o'rganildi. Arxeologik kuzatuvlar esa topilmaning joylashuvi, atrofidagi madaniy qatlamlar va me'moriy qoldiqlarni aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil orqali topilma yozuvlaridagi shaxslar haqida mavjud ma'lumotlar solishtirildi, bu esa tarixiy rekonstruksiya qilish imkonini berdi.

Empirik asos sifatida Shahrisabz hududida aniqlangan qabrtosh va unga oid dala kuzatuvlari materiallari olindi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Guliston" mahallasida topilgan qabrtosh o'zining epigrafik mazmuni bilan nihoyatda muhim tarixiy manba hisoblanadi, chunki unda shayx-ul islom Xoja Abdurahmon al-Ansoriy nomi, uning diniy maqomi va vafot sanasi aniq ko'rsatilgan. Bu esa uning yuqori diniy ierarxiyaga mansub bo'lganligini tasdiqlaydi[7].

Topilmaning joylashuvi ham muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi, chunki u yaqin atrofdagi qadimiy qabriston va masjid qoldiqlari bilan bog'liq holda aniqlangan bo'lib, bu hududning uzoq vaqt davomida diniy markaz bo'lganligini ko'rsatadi[1].

Arxeologik qatlamlar tahlili natijasida somoniylar davriga oid qurilish materiallarining keng tarqalganligi aniqlanib, bu hudud IX–X asrlarda yirik qishloq sifatida shakllanganligini ko'rsatadi[8]. Keyingi davrlarda esa bu jarayon davom etib, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida shahar to'liq shakllangan[6].

Tarixiy manbalar bilan solishtirish natijasida aniqlanishicha, Ali Yazdiy tomonidan tilga olingan keshlik Abdurahmon ismli shaxs ushbu qabrtosh egasi bo'lishi ehtimoli mavjud[2].

Olingan natijalar Shahrisabz hududining rivojlanishini evolyutsion model asosida tushuntirish imkonini beradi, chunki bu hudud dastlab qishloq sifatida shakllanib, keyinchalik siyosiy va diniy markazga aylangan. Bu jarayon Markaziy Osiyodagi urbanizatsiya modelining tipik namunasi sifatida qaralishi mumkin.

Shuningdek, shayx-ul islom maqomidagi shaxsning mavjudligi hududda diniy boshqaruv tizimi rivojlanganligini ko'rsatadi, bu esa Temuriylar davrida diniy institutlarning yuqori darajada tashkil etilganligini tasdiqlaydi.

Biroq, mazkur tadqiqot davomida aniqlangan muhim muammolardan biri – tarixiy obyektlarning yetarlicha ro'yxatga olinmaganligi bo'lib, bu ilmiy tadqiqotlarni cheklaydi. Shu sababli kelgusida kompleks arxeologik tadqiqotlar zarur.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Shahrisabz hududi IX–XIV asrlar davomida bosqichma-bosqich rivojlanib, yirik shahar darajasiga yetgan bo'lib, bu jarayon arxeologik va epigrafik dalillar bilan tasdiqlanadi. Topilgan qabrtosh esa,

1. Temuriylar davrida bu hududda yuksak diniy va ilmiy muhit mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Amir Temur urushlar davrida diniy ulamolar ko'magidan faol tarzda foydalanganligi haqida Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida ta'kidlab o'tilgan. Bunda 3 toifa diniy ulamolar guruhi ko'rsatilgan. 1-toifa termezlik sayyidlar – Muhammad (s.a.v)ning avlodlari; 2-toifa samarqandlik ulamolar hamda 3-toifa keshlik shayx-ul islomlar shular jumlasidandir.

2. Oxirgi toifa diniy ulamolar qatorida Xoja Afzaliddin Keshiy haqida fikrlar bayon etilgan. Ushbu shaxs biz tadqiqot olib borayotgan Xoja Abdurahmon al-Ansoriyning otasi bo'lib o'z davrining yirik ulamolari qatorida zikr etilgan.

3. Xoja Abdurahmon al-Ansoriy shaxsining aniqlanishi Temuriylar davri diniy elitesini o'rganishda muhim ilmiy natija hisoblanadi va kelgusida keshlik diniy ulamolar hayoti va ijodiy faoliyati yo'nalishida yangi tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov B. O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi. – Toshkent, 2008.
2. Alimov R. Central Asia: Common Heritage. – Samarkand, 2015.
3. Bosworth C.E. The Islamic Dynasties. – Edinburgh, 2001.
4. Dani A.H., Masson V.M. History of Civilizations of Central Asia. – UNESCO, 1992.
5. Frye R.N. The Heritage of Central Asia. – Princeton, 1996.
6. Golden P.B. Central Asia in World History. – Oxford, 2011.
7. Hodgson M.G.S. The Venture of Islam. – Chicago, 1974.
8. Karimov Sh. Shahrisabz tarixi. – Toshkent, 2010.
9. Subtelny M.E. Timurids in Transition. – Leiden, 2007.
10. Археологические материалы по Шахрисабзу.
11. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М., 1963.
12. Массон М.Е. Археология Средней Азии. – Ташкент, 1970.
13. Пугаченкова Г.А. Архитектура Средней Азии. – М., 1976.
14. Усмонова З. Историческая топография Шахрисабза. – Ташкент, 1985.
15. Язди Шарафуддин Али. Зафар-наме. – Ташкент, 1997.